

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK TUSHUNCHASI VA UNING XORIJY DAVLATLAR MIQYOSIDAGI TAJRIBALARI

Pulatov Otabek A'zamjon o'g'li

Namdu yuridik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Gender tengligi va uning ijtimoiy hayotda ahamiyati mavzusidagi ushbu maqolada gender tengligining zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi nafaqat ularning shaxsiy rivoji, balki jamiyat barqarorligi uchun ham muhim ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada ta'lim, mehnat bozori, siyosat va oilaviy hayotda gender tenglikka erishish yo'llari va bu boradagi dolzarb muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, diskriminatsiya, orientatsiya, siyosiy tenglik, siyosiy boshqaruv, ayollar huquqlari.

Annotation: This article discusses the importance of gender equality and its significance in social life. It emphasizes that equal opportunities for women and men are crucial not only for their personal development but also for the stability of society. The article explores ways to achieve gender equality in education, the labor market, politics, and family life, and highlights current issues related to this matter.

Keywords: gender equality, discrimination, orientation, political equality, political governance, women's rights

Аннотация: В данной статье рассматривается важность гендерного равенства и его значение в социальной жизни. Подчеркивается, что равные возможности для женщин и мужчин важны не только для их личного развития, но и для стабильности общества. В статье исследуются пути достижения гендерного равенства в образовании, на рынке труда, в политике и семейной жизни, а также освещаются актуальные проблемы в этой области.

Ключевые слова: гендерное равенство, дискриминация, ориентация, политическое равенство, политическое управление, права женщин

Gender tengligi bu erkaklar va ayollar o'rtasida, shuningdek, barcha jinsiy orientatsiya va gender identifikatsiyalariga ega shaxslar o'rtasida, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida teng huquqlar, imkoniyatlar va resurslarning taqsimlanishidir. Gender tengligi deganda, odatda, jinsga qarab hech qanday kamsitish yoki farqlashning bo'lmasligi, hamda har bir shaxsning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishda teng sharoitlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.



Gender tengligi desa haligacha ayollar huquqi deb tushinadigan insonlar bor, aslida esa gender tenglik ikki jins huquqlari va majburiyatlarining tengligini anglatadi. Erkak bor va ayol bor ular o'zini jinsini tanlay olmaydi, jinsining erkak yoki ayol bo'lishi yaratganga bog'liq, farzand tug'ilgandan keyin bazida erkak bo'lganligi uchun boshqacha imkoniyatlar beriladi, ayol bo'lgani uchun esa boshqacha mana shu nohaqlik mana shu diskriminatsiya shu narsaga qarshi gender tengligi ikkita jins vakiliga ham u ayol va erkak bo'lganligi uchun emas, balki u inson bo'lganligi uchun teng huquqlar, teng imkoniyatlar beradi.

Bizda aynan O'zbekiston bo'yicha aytadigan bo'lsak, bizda gender deganda erkak va ayol tushuniladi, ya'ni ikkita jins bor erkak va ayol, gender bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati deb xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunida belgilab qo'yilgan.

Bosh qomusimizning 58-moddasida: Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi deb belgilab qo'yilgan, yani O'zbekiston Respublikasi hududida erkak va ayollar huquq va majburiyatlari teng. Gender tengligi jamiyatimiz uchun suv va havodek zarur, jamiyatimizda ayollarning huquqini cheklashga hech kimning haqqi yo'q. Hozirgi yangi O'zbekistonda erkak va ayollar huquqlari tengligiga katta e'tibor berilmoqda, jinslarning notengligini bartaraf etish, xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mehnat munosabatlarida erkak va ayollarning teng huquqqa ega bo'lishi, teng mehnat uchun xotin-qizlar va erkaklarga teng ish haqini (mukofotni) hamda xotin-qizlar va erkaklar ishining sifatini baholashga katta e'tibor berilmoqda. Bejizga asosiy qonunimizning 42-moddasida: Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani sh huquqiga ega deb belgilab qo'yilmagan, ushbu normada erkakmi ayolmi farqi yo'q mehnat qilishga haqli, lekin hozirgi uylanayotgan erkaklarning hayolida to'ydan keyin ayolini ishlatmaslik g'oyasi mavjud, bu aslida noto'g'ri fikr ayollarni ham ishlashga huquqi mavjud.

Oilada gender tengligi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq nikoh oilaning vujudga kelishi uchun birdan bir asos, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqlik ekanligiga asoslanadi, ya'ni oilada erkak ham ayol ham teng, lekin O'zbekiston



Respublikasining ayrim urf-odat va an'analariga ko'ra oilada erkak kishi ayol kishidan bir pog'ona yuqorida turadi bu bizning qon qonimizgacha singib ketgan. Bazi bir huquqshunoslarning fikriga ko'ra oilada gender tenglik kerak emas, chunki oilaning an'anaviy strukturasini saqlash zarurligini aytib, gender tenglikni tabiiy tartibni buzuvchi, hatto oila tuzumiga zarar yetkazuvchi omil sifatida ko'rishadi. Ularning fikriga ko'ra, o'sha an'anaviy rollar oilaning barqarorligi va farovonligiga xizmat qiladi. Ammo boshqa huquqshunoslar va ijtimoiy faoliyatchilar bu fikrni tanqid qilib, gender tenglikni oilada ham muhim deb hisoblashadi. Ular uchun, tenglik - bu nafaqat adolatni ta'minlash, balki oiladagi har bir insonning erkin va baxtli hayot kechirish huquqini himoya qilish demakdir. Shu bilan birga, gender tenglik oiladagi barcha a'zolarining mas'uliyatlarini teng taqsimlashni va bir-birini hurmat qilishni ta'kidlaydi.

Gender tengligi rivojlangan mamlakatlarda quyidagi qiziqarli statistikalar mavjud: Islandiya dunyodagi eng gender teng davlat hisoblanadi. Uning reytingi 0.8594 ballni tashkil qildi, ularning gender tenglik bo'yicha ko'rsatkichlari 87% ni tashkil qiladi, ushbu davlat 14 yildan beri 1-o'rinni egallaydi, sababi Islandiyada ayollar siyosiy lavozimlarda katta ulushga ega va bu yerda ayollar iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etadilar va ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega.

Norvegiya: Norvegiya gender tengligi bo'yicha yuqori o'rinda. Iqtisodiy ishtirok va siyosiy qarorlar qabul qilishda ayollar ko'plab imkoniyatlarga ega. Bu davlatda ayollar parlamentda va boshqa rasmiy lavozimlarda yaxshi vakillikka ega. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi ish haqi farqi atigi 5-7% ni tashkil qiladi. Ayollar korporativ boshqaruv kengashlarida keng vakolatga ega.

Finlandiya: Finlandiyada ham gender tengligi yuqori bo'lib, ayollar davlat boshqaruvida va iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari ham yuqori. Ayollar hukumat tarkibida 50% dan ko'proq vakillikka ega, bosh vazir ham ayol bo'lgan.

Shvetsiya: Shvetsiya gender tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori o'rinlarda bo'lib, ayollar va erkaklar o'rtasida ish haqi farqi deyarli yo'q, va ularning ish va oilaviy hayotini muvozanatlash imkoniyatlari kengdir.

Daniya: Daniya ham yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, gender tengligi bo'yicha davlat siyosati va qonunchilik juda ilg'or. Ayollar va erkaklar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy tenglik ta'minlangan. Ayollarning ish bilan bandligi erkaklardan unchalik farq qilmaydi. Garchi rivojlangan davlatlarda gender tengligi ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa-da, ijtimoiy va madaniy faktorlarga qarab bu o'zgaradi. Ayrim mamlakatlarda ayollarni bilim olishda ham, ish joylarida ham ba'zi noqulayliklar kutib oladi.



Rivojlangan mamlakatlar orasida gender tengligi katta yutuqlarga erishgan, lekin hamon ayrim sohalarda, ayniqsa iqtisodiy va siyosiy ishtirokda, gender tengligi to'liq ta'minlanmagan. Bu sohada yana rivojlanish va yangilanishlar talab qilinadi.

Xalqaro iqtisodiy forumning gender tafovuti bo'yicha global indeksiga ko'ra dunyoda gender tengligisiz eng yaqqol ko'zga tashlanadigan soha bu siyosiy boshqaruv hisoblanadi, 2022-yil dekabr holatiga ko'ra dunyo aholisining qarib 27,9% aholisi ya'ni 2,12 mlrd kishi ayol rahbarligida davlatlarda istiqomat qiladi.

Davlat boshqaruvida bizda hisobotlarga kora 25%da ortigi ayollar deyiladi, lekin bu yuqori darajada qaror qabul qilish darajasi bo'yicha hisobga olinmagan, bu foiz juda ham kam, mamlakatimizda uch hokimiyat bor qonun chiqaruvchi ijro etuvchi va sud hokimiyati, sud hokimiyatida ayol hodimlar ulushi 13%dan oshgani yo'q, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ayollar juda kam deyarli yo'q, insonlarda jinoyat ishlari go'yoki ayollar uchun mos emas degan qarash bor.

Bu raqamlar va tarkib o'zgarishi mumkin, chunki hukumat tarkibi va vazirliklar tuzilmasi doimiy ravishda yangilanib turadi, lekin bu sohada yanada ko'proq rivojlanish va imkoniyatlar yaratish zarurati mavjud. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Oliy Majlisida ayollar soni 30 nafardan ortiq. Oliy Majlis bu O'zbekistonning parlamenti bo'lib, unda ikki palata mavjud: Qonunchilik palatasi (pastki palata) va Senat (yuqori palata).

O'zbekistonning parlamentida ayollar soni har yil o'zgarib turadi, ammo 2024-yilda Oliy Majlisda ayollar vakillarining ulushi qariyb 32-35% atrofida bo'lishi mumkin. Respublikamizda bugunga kunda 1248 nafar sudya faoliyat yuritmoqda. Shundan 158 nafari ayollardir. 158 nafar ayol sudyalarning ichida 30 dan ortig'i yuqori lavozimda ishlaydi. Sudyalarning 44 foizi esa birinchi marta sudya bo'lib faoliyat olib boryapti.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, gender tengligi hayotingizda juda katta ahamiyatga ega. Bu faqat individual huquq va imkoniyatlarni teng taqsimlash bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyatda, ish joylarida, siyosatda, ijtimoiy hayotda, ta'limda, va boshqa sohalarda barqarorlik va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Gender tengligi jamiyatda adolatni ta'minlashga yordam beradi, chunki har bir shaxs, uning jinsidan qat'iy nazar teng huquqlarga ega bo'lishi kerak. Erkaklar va ayollar uchun tenglikni yaratish orqali jamiyatning barcha a'zolari o'z salohiyatini to'laqonli amalga oshirishi mumkin. Bu esa davlatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini oshiradi, fuqarolar o'z erkinliklari orqali jamiyatga yanada samarali va barqaror hissa qo'shadi. Gender tenglik ayollarni yoki erkaklarni, balki barcha jinsdagi kishilarni teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlash orqali ijtimoiy tenglikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, gender tengligi jamiyatdagi g'alamis fikrlarni yengib, barcha jinsdagi insonlarning o'z qobiliyatlariga qarab imkoniyatlar yaratishiga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, kamsitishning oldini olish va haqiqiy tenglikka erishishga yordam beradi. Gender tengligi mavjud bo'lmaganda, jamiyatda ayollarning o'рни





mavjud bo'lmas edi ayol kishi odam o'rnida ko'rilmaz edi. Genderga qarab farqlash, diskriminatsiya yoki shaxsiy erkinliklarni cheklash ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Gender tengligining rivojlangan davlatlardagi tajribasi katta muvaffaqiyatga erishishga yordam berdi. Masalan Finlandiya, Shvetsariya, Daniya, Indoneziya kabi mamlakatlarda ayollar va erkaklar uchun ta'lim, mehnat bozorida teng imkoniyatlar va siyosiy ishtirok etish darajasi yuqori bo'lib, bu ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga boshqa davlatlarda gender tengligi masalasi bo'yicha muammolar, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki cheklangan, siyosatdagi roli pasaygan, jinsiy kamsitishlar mavjud.

Shunday qilib, gender tengligi faqat rivojlangan davlatlarda emas, balki barcha mamlakatlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy ijtimoiy vazifa sifatida qoladi. Gender tengligi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-2024, 14-bet.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" 02.09.2019-yildagi qonuni
3. Konstitutsiyaviy huquq-2024, O.Husanov, "Yuridik adabiyotlar publish"
4. <https://kun.uz/114454>

